



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 250 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliyev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliev Istam Ixtiyorovich	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari	197
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
Qosimova Lola Sultanovna	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari	222
Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство)	231
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'gli	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari	244
Solikhova Dildora Alisher qizi	



SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING TURLARI

Solikhova Dildora Alisher qizi

TDIU, "Biznes boshqaruvi" kafedrası magistri

E-mail: dildora9203571@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining asosiy turlari ko'rib chiqilgan. Xususiy klinikalar, farmatsevtika, tibbiy sug'urta, ta'lim va innovatsion texnologiyalarga asoslangan tadbirkorlik yo'nalishlari tahlil qilinib, ularning iqtisodiyot va aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan. Soha holati tahlil qilingan, muammolar ko'rib chiqilgan va amalga oshirilgan xalqaro tajribalar asosida xulosalar berilgan. Tadqiqot metodologiyasi statistik, taqqoslama va kontent-tahlil hamda ekspert suhbatlariga asoslangan. Davlat-xususiy sheriklik, raqamlashtirish va ijtimoiy tadbirkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xulosada tibbiyot sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: sog'liqni saqlash, tadbirkorlik, davlat-xususiy sheriklik, innovatsiyalar, raqamlashtirish, xususiy klinika, farmatsevtika, sug'urta, ijtimoiy tadbirkorlik, PPP.

Abstract: The article covers the main types of entrepreneurial activity in the health system. Entrepreneurship areas based on private clinics, pharmaceuticals, health insurance, education and innovative technologies are analyzed and their actions in improving the quality of services provided to the economy and population are shown. The state of the field was analyzed, problems were considered and conclusions were made based on the international experiments carried out. The research methodology was based on statistical, comparative and content analysis and expert interviews. Special attention was paid to the issues of Public-Private Partnership, digitization and social entrepreneurship. In the conclusion, recommendations were proposed to improve the conditions for the development of entrepreneurship in the field of Medicine.

Key words: health, entrepreneurship, public-private partnership, innovation, digitization, private clinic, pharmacy, insurance, innovation, PPP.

Аннотация: В статье рассмотрены основные виды предпринимательской деятельности в системе здравоохранения. Проанализированы направления предпринимательства, основанные на частных клиниках, фармацевтике, медицинском страховании, образовании и инновационных технологиях, и показаны их усилия по повышению качества предоставляемых услуг экономике и населению. Было проанализировано состояние отрасли, рассмотрены проблемы и сделаны выводы на основе проведенного международного опыта. Методология исследования была основана на статистическом, сравнительном и контент-анализе, а также на экспертных интервью. Особое внимание было уделено вопросам государственно-частного партнерства, цифровизации и социального предпринимательства. В заключении предложены рекомендации по совершенствованию условий развития предпринимательства в сфере медицины.

Ключевые слова: здравоохранение, предпринимательство, государственно-частное партнерство, инновации, цифровизация, частная клиника, фармацевтика, Страхование, Инновации, ГЧП.

KIRISH

Sog'liqni saqlash tizimi jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, aholining salomatligi, mehnat unumdorligi va umuman milliy iqtisodiyot barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tizimda tadbirkorlik faoliyati aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, innovatsiyalarni joriy etish, xalqaro standartlarga mos tizim yaratish hamda davlat byudjeti yukini kamaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda dunyo miqyosida tibbiyot sohasida innovatsion yechimlar, xususiy tashabbuslarning faol ishtiroki va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish sog'liqni saqlash tizimining modernizatsiyasida muhim omilga aylanmoqda.



1-jadval. Sog'liqni saqlashda tadbirkorlikning asosiy shakllari

Shakl	Misollar	Afzalliklari	Cheklovlari
Xususiy klinikalar	Stomatologiya, diagnostika markazlari	Moslashuvchanlik, innovatsiyalarni tez joriy etish	Kam ta'minlanganlar uchun cheklangan imkoniyat
Davlat-xususiy sheriklik (DXSh)	Qo'shma loyihalar (kardiologiya, dializ)	Xavflarni birgalikda taqsimlash, davlat yukini kamaytirish	Boshqaruv va tartibga solishda murakkabliklar
Ijtimoiy tadbirkorlik	Telemeditsina, ko'chma brigadalar	Zaif qatlamlar uchun xizmatlarning mavjudligi	Past rentabellik, grantlarga qaramlik
Farmatsevtika biznesi	Dorixona tarmoqlari, dori ishlab chiqarish	Bozor hajmining kengligi, eksport imkoniyatlari	Qattiq litsenziyalash, raqobat kuchliligi
Tibbiyotdagi IT-startaplar	Elektron tibbiy kartalar, mobil ilovalar	Innovatsion yechimlar, tez kengayish imkoniyati	Yuqori texnologik xarajatlar, kiberxavfsizlik xavfi

Manba: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari; WHO (2023); OECD (2024).

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik turli shakllarda rivojlanmoqda. Xususiy klinikalar aholiga tezkor va sifatli xizmat ko'rsatish imkonini berayotgan bo'lsa, davlat-xususiy sheriklik yirik loyihalarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tadbirkorlik esa ko'proq zaif qatlamlarga qaratilgan bo'lib, moliyaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan cheklovlarga ega. Shu bilan birga, farmatsevtika sohasi va IT-startaplar tibbiyot xizmatlarini modernizatsiya qilish hamda innovatsion yechimlarni joriy etishda katta istiqbolga ega.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident qarorlari asosida yangi xususiy klinikalar tarmog'i kengaymoqda, farmatsevtika va biotexnologiya sohalarida tadbirkorlik subyektlari soni ortmoqda. Shu bilan birga, qishloq joylarda tibbiy xizmatlarning yetarli emasligi, malakali mutaxassislar taqchilligi va raqamli texnologiyalarni joriy etishning sustligi kabi muammolar mavjud.

Shu bois mazkur maqolada sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish xususiyatlari, uning imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinadi hamda xalqaro tajriba asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti bo'yicha klassik nazariy asosni Kenneth Arrow (1963) yaratib bergan bo'lib, u tibbiyot xizmatlari bozorining o'ziga xos tomonlarini, xususan, asimmetrik axborot muammosi va davlatning tartibga solishdagi rolini ko'rsatib bergan. Keyinchalik Drummond va boshqalar (2015) sog'liqni saqlash iqtisodiyotida xarajat-samaradorlik tahlili metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, u tibbiy qarorlar qabul qilishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Porter va Teisberg (2006) tibbiyotda raqobatni asoslangan yondashuv orqali sifatni oshirish va xarajatlarni kamaytirish mumkinligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, WHO (2023) va OECD (2024) hisobotlarida ko'rsatilishicha, davlat va xususiy sektorning uyg'un hamkorligi sog'liqni saqlash tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Markaziy Osiyo bo'yicha tadqiqotlarda (Rechel, 2019; Habibov va Chernichovsky, 2020) davlatning tibbiy xizmatlarda asosiy rol o'ynashda davom etishi bilan birga, xususiy sektorning tobora ortib borayotgan ishtiroki qayd etiladi. O'zbekistonda olib borilgan mahalliy izlanishlarda (Karimov, 2019; Abdullaev, 2021) xususiy klinikalar sonining ortib borishi, biroq litsenziyalash, malakali kadrlar va moliyaviy resurslarga kirishdagi qiyinchiliklar yoritib berilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy tadbirkorlik modeli ham sog'liqni saqlash tizimida alohida o'rin egallamoqda. Masalan, Nicholls (2009) ijtimoiy tadbirkorlikning sog'liqni saqlashda qo'llanishi orqali aholining zaif qatlamlariga xizmatlar ko'rsatish mexanizmlarini ta'rifiyladi. Xorijiy adabiyotlarda (OECD, 2020; ADB, 2025) davlat-xususiy sheriklik (PPP) modeli orqali yirik shifoxonalar, diagnostika markazlari va innovatsion texnologiyalarni joriy etish samarali yo'l sifatida taklif etilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sog'liqni saqlash tizimining sifatini oshirishda muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu asosda O'zbekistonda ham xususiy sektor faoliyatini kengaytirish sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlarini chuqur o'rganish va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan. Shu sababli kompleks yondashuv qo'llanildi.

Statistik tahlil. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, WHO va OECD ma'lumotlari asosida 2022–2024 yillardagi sog'liqni saqlash xarajatlari, klinikalar soni, aholining



tibbiy xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Dinamika va ulushlarni aniqlash uchun trend tahlili va foiz ulushlarini hisoblash usullari qo'llanildi.



1-rasm. Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyati tarmoqlari ulushi.

Manba: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2024), OECD (2024), O'zbekiston Respublikasi SSV statistik hisobotlari.

Diagrammada xususiy klinikalar, farmatsevtika sohasi, sug'urta, tibbiy ta'lim va innovatsion xizmatlarning sog'liqni saqlashdagi shartli ulushi ko'rsatilgan. Ulushlar xalqaro sog'liqni saqlash amaliyoti va O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining so'nggi rivojlanish yo'nalishlariga asoslangan.

2. Normativ-huquqiy tahlil

- O'zbekiston Respublikasining "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonuni (1996 y.), "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni (2019 y.), Prezident farmon va qarorlari, hamda soha reglamentlari o'rganildi.

- Normativ-huquqiy baza xalqaro standartlar (masalan, WHO tavsiyalari) bilan taqqoslandi.

3. Taqqoslama (komparativ) tahlil

- O'zbekiston tajribasi Janubiy Koreya, Turkiya, Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarning sog'liqni saqlash tizimlari bilan solishtirildi.

- Ularning DXSh mexanizmlari, moliyalashtirish usullari va xususiy sektor ishtiroki darajasi tahlil qilindi.

4. Kontent-tahlil

- Ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida sog'liqni saqlash iqtisodiyotida tadbirkorlikning asosiy tendensiyalari aniqlandi.

- Akademik manbalar (Arrow, Drummond, Porter, Nicholls va boshqalar) konseptual asos sifatida qo'llanildi.

5. Ekspert suhbatlari va so'rovlar

- Tibbiyot sohasi mutaxassislari, xususiy klinika egalari va iqtisodchilar bilan suhbatlar o'tkazildi.

- 50 nafar mutaxassis ishtirokida qisqa anketa so'rovi o'tkazilib, ularning asosiy muammolar haqidagi fikrlari to'plandi (masalan: litsenziyalashdagi to'siqlar, moliyaviy manbalarga kirish, raqamli texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar).

6. Empirik tahlil

- Toshkent shahrida joylashgan ayrim xususiy klinikalarning faoliyati kuzatildi.


- Ularning xizmat narxlari, aholining murojaat qilish chastotasi, xizmat sifati va moliyaviy barqarorligi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Iqtisodiy natijalar - O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimi moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy yukni davlat zimmasiga olgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda xususiy sektor ulushi sezilarli darajada ortib bormoqda.



2015-yilda umumiy sog'liqni saqlash xarajatlarida xususiy sektorning ulushi 18% bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 30% ga yetdi. Bu jarayon davlat byudjeti yukini kamaytirish bilan birga, tibbiy xizmatlarda raqobatni kuchaytirib, innovatsiyalarni joriy etishga xizmat qilmoqda. Xususiy klinikalarning soni ham tez sur'atlar bilan oshmoqda: 2024-yilda ularning soni 3400 taga yetgan bo'lsa, 2030-yilga borib 7500 taga chiqishi tahmin qilinmoqda. Biroq, xususiy sektorning faoliyati hali ham asosan yirik shaharlarda to'plangan, qishloq hududlarda esa tadbirkorlik faoliyati cheklangan.



2-rasm. Sog'liqni saqlash tadbirkorlik tarmoqlarining o'sish dinamikasi (2015-2025).

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (2015–2025), ADB (2025), WHO (2024).

Diagrammada 2015–2025 yillar oralig'ida xususiy klinikalar va dorixonalar sonining o'sish tendensiyasi shartli raqamlar asosida ko'rsatilgan. Ularning yillik o'sishi sohada tadbirkorlik faoliyatining kengayib borayotganini ifodalaydi.

2. Ijtimoiy natijalar - Tibbiy xizmatlarda tadbirkorlikning rivojlanishi aholiga xizmatlarning xilma-xilligini oshirishga olib kelmoqda. Xususiy sektor tashabbuslari asosida tor yo'nalishdagi klinikalar, laboratoriyalar va diagnostika markazlari tashkil etilmoqda. Bu aholiga tezkor va sifatli xizmatlardan foydalanish imkonini bermokda. Biroq, xizmat narxlarining yuqoriligi hamda daromadi past aholi qatlamlari uchun to'siqlar mavjud. Shu sababli davlat tomonidan ijtimoiy tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash, arzon skrining va mobil klinikalarni rivojlantirish zarur.

3. Texnologik natijalar - So'nggi yillarda O'zbekistonda raqamli tibbiyot yo'nalishida sezilarli qadamlar tashlanmoqda. Telemeditsina xizmatlari, elektron sog'liq kartalari, onlayn maslahat platformalari joriy qilinmoqda. Xususiy tadbirkorlarning texnologik innovatsiyalarga qiziqishi yuqori bo'lsa-da, moliyaviy imkoniyatlarning cheklanganligi sababli ko'plab loyihalar keng ko'lamda amalga oshmayapti. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish sog'liqni saqlash tizimini yanada shaffof va samarali qiladi. Masalan, Janubiy Koreya va Estoniya misolida telemeditsina orqali xarajatlarni kamaytirish va xizmatlarning ommabopligini oshirish mumkinligi tasdiqlangan.

4. Institutsional va huquqiy natijalar - Normativ-huquqiy baza mavjud bo'lsa-da, uning amaliy ijrosida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Xususiy klinikalarni litsenziyalash tartibi byurokratik bo'lib, jarayonning uzoq davom etishi tadbirkorlar faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy mexanizmlari to'liq ishlab chiqilmagan. DXSh loyihalarining soni hali juda kam. Masalan, Turkiya yoki Qozog'istonda yuzlab DXSh asosida klinika va shifoxonalar barpo etilgan bo'lsa, O'zbekistonda bu borada endigina dastlabki loyihalar amalga oshirilmoqda.

5. Kadrlar salohiyati - Tibbiyotda tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim sharti — malakali kadrlar tayyorlashdir. So'nggi yillarda O'zbekistonda tibbiyot oliygohlari soni ortdi, ammo amaliyot shuni ko'rsatadiki, mutaxassislarning ko'pchiligi davlat sektorida ishlashni afzal ko'radi. Xususiy klinikalarda esa yuqori malakali kadrlar yetishmasligi kuzatilmoqda. Shu bois, tibbiy menejment, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalar yo'nalishida qo'shimcha kurslar tashkil etish, xalqaro tajribani o'rganish va mutaxassislarni chet eldan jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi so'nggi yillarda jadal sur'atlar bilan amalga oshmoqda. Xususi klinikalar sonining ortishi, diagnostika markazlari va farmatsevtika kompaniyalarining faol ishtiroki tibbiyot bozorida raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifatining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, davlat ham sohaga xususi investitsiyalarni jalb etish, davlat-xususi sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha muhim tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Ammo tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud imkoniyatlarga qaramay, sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan bir qator omillar mavjud. Bular qatoriga:

- moliyalashtirish va kreditlash imkoniyatlarining cheklanganligi;
- litsenziyalash jarayonidagi byurokratik to'siqlar;
- malakali kadrlar yetishmovchiligi;
- qishloq hududlarda xususi tibbiyotning sust rivojlanishi;
- innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishdagi qiyinchiliklar kiradi.

Shu sababli maqola natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish: davlat tomonidan xususi klinikalar uchun imtiyozli kreditlar, soliqli yengilliklari va grantlar ajratilishi lozim.

2. Davlat-xususi sheriklikni rivojlantirish: BOT modeli, qo'shma klinikalar va tibbiy franshiza loyihalari keng joriy etilishi kerak.

3. Raqamlashtirish va innovatsiyalar: telemeditsina, elektron tibbiy kartalar va sun'iy intellekt asosida diagnostika xizmatlarini rivojlantirishni tezlashtirish lozim.

4. Ijtimoiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: qishloq hududlarda mobil klinikalar va arzon skrining dasturlarini yo'lga qo'yish orqali aholining zaif qatlamlari uchun tibbiy xizmatlarning ommabopligini ta'minlash mumkin.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish: tibbiy menejment, sog'liqni saqlash iqtisodiyoti va raqamli texnologiyalar bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish, shuningdek, xalqaro mutaxassislarni jalb qilish muhimdir.

Umuman olganda, sog'liqni saqlash sohasida tadbirkorlikni rivojlantirish har qanday davlat uchun nafaqat iqtisodiy o'sish va byudjet xarajatlarini optimallashtirish, balki aholining salomatlik darajasini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va mamlakatni xalqaro tibbiy makonga integratsiya qilishda ham strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdullaev, B. (2021) 'Государственно-частное партнёрство в здравоохранении: перспективы развития', *Экономика и инновации*, 4, pp. 55–62.
2. Arrow, K. (1963) 'Uncertainty and the Welfare Economics of Medical Care', *American Economic Review*, 53(5), pp. 941–973.
3. Asian Development Bank (ADB) (2025) *Healthcare System Development Concept 2019–2025*. Manila: ADB.
4. Blomqvist, Å. and Busby, C. (2012) *Better Value for Money in Healthcare: European Lessons for Canada*. Toronto: C.D. Howe Institute.
5. Drummond, M., Sculpher, M., Claxton, K., Stoddart, G. and Torrance, G. (2015) *Methods for the Economic Evaluation of Health Care Programmes*. Oxford: Oxford University Press.
6. European Commission (2019) *Public-Private Partnerships in Healthcare: Theory and Practice*. Brussels: EU Publications.
7. Frolova, S. (2020) *Частная медицина как элемент конкурентной среды здравоохранения*. Москва: Экономика и управление.
8. Jakovljevic, M. (2015) 'Health expenditure dynamics in the Balkans', *Journal of Medical Economics*, 18(6), pp. 553–566.
9. Karimov, A. (2019) *Предпринимательская активность в медицине Узбекистана*. Ташкент: Иқтисод.
10. Lichtenberg, F.R. (2019) 'The impact of pharmaceutical innovation on longevity and medical expenditure', *Health Economics*, 28(12), pp. 1387–1405.
11. McKee, M. and Figueras, J. (2012) *Health systems, health, wealth and societal well-being: assessing the case for investing in health systems*. Maidenhead: Open University Press.
12. Musgrove, P. (2004) *Health Economics in Developing Countries*. Washington: World Bank.
13. OECD (2021) *Health at a Glance 2021: OECD Indicators*. Paris: OECD Publishing.
14. O'zbekiston Respublikasi (1996) "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonun, №265-I, 29.08.1996 (с изм.).
15. O'zbekiston Respublikasi (2019) "Davlat-xususi sheriklik to'g'risida"gi Qonun, №ZRU-537, 10.05.2019.
16. Porter, M.E. and Teisberg, E.O. (2006) *Redefining Health Care: Creating Value-Based Competition on Results*. Boston: Harvard Business School Press.
17. Preker, A. and Harding, A. (2003) *Private Participation in Health Services*. Washington: World Bank.
18. Reinhardt, U.E. (2012) 'Divide et Impera: Protecting the Growth of Health Care Incomes (Costs)', *Health Economics*, 21(1), pp. 41–54.
19. Saltman, R.B., Busse, R. and Figueras, J. (2006) *Social health insurance systems in western Europe*. Maidenhead: Open University Press.



20. Smith, P.C., Mossialos, E., Papanicolas, I. and Leatherman, S. (2009) *Performance Measurement for Health System Improvement: Experiences, Challenges and Prospects*. Cambridge: Cambridge University Press.
21. World Health Organization (2022) *Global Health Expenditure Database*. Geneva: WHO



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>